

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
HUZURIDAGI XADICHA SULAYMONOVA NOMIDAGI RESPUBLIKA
SUD EKSPERTIZA MARKAZI
SUD-EKSPERTLIK ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**



ODAM DNKSI SUD-BIOLOGIK EKSPERTIZASI IMKONIYATLARI

(amaliy qo‘llanma)



TOSHKENT 2023

Mualliflar:

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazining Odam DNKsi SBE laboratoriyasi mudiri A.E.Normatov, Sud-ekspertlik ilmiy-tadqiqot instituti bo‘lim boshlig‘i N.S.Saitova

Mazkur amaliy qo‘llanma fuqarolarga Odam DNKsi sud-biologik ekspertizasi yo‘nalishida sud-ekspertlari tomonidan tavsiyalar va tushunchalar berish maqsadida ishlab chiqilgan.

KIRISH

Ma'lumki, sudlar tomonidan biron-bir ishni ko'rib chiqishda, undagi mavjud holatlar to'liq o'rganilmasdan, oydinlik kiritilmasdan, yoki aniqlamasdan turib ushbu ish yuzasidan hal qiluvchi qaror qabul qilinmaydi. Xuddi shunday holatlarni aniqlashda fan, texnika, san'at yoki hunar sohasida maxsus bilimlarga tayaniladi. Sud-ekspertlik sohasi esa so'nggi yillarda jadal rivojlandi hamda adolatni qaror toptirish, nizolarning qonuniy hal etilishida o'z o'rnini va mavqeyiga ega bo'ldi. Bugungi kunda sud ekspertiza faoliyatini zamonaviy va yuqori aniqlikdagi tahlil vositalari bilan jihozlash orqali odil sudlovni ta'minlash, sud ekspertizalari sifati va ishonchliligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ish uchun ahamiyatli holatlarni aniqlashda, ekspertiza tadqiqotlari va tadqiqot natijalariga asoslangan ekspert xulosasi muhim ahamiyatga ega. Chunki, sud eksperti o'z xulosasini fan, texnika, san'at yoki hunar sohasidagi maxsus bilimlari asosida o'tkazadi va ilmiy tekshiruvlar natijasida asoslab beradi. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazining (keyingi o'rinlarda Markaz deb keltiriladi) Odam DNKsi sud-biologik ekspertizasi laboratoriyasida aynan shunday murakkab tadqiqotlar ko'plab o'tkaziladi. O'tkazilgan tadqiqotlar natijalari asosida odil sudlov uchun alohida ahamiyatli qat'iy xulosalar beriladi.

Shu bilan birga, turli xil sabablarga ko'ra masalani sud tartibida emas, balki bevosita Markazga murojaat qilish orqali shartnomaga asosan jismoniy va yuridik shaxslar uchun DNK tadqiqotlari o'tkaziladi va mutaxassis fikri beriladi.

Shuningdek, shaxsga oid ma'lumotlarini oshkor qilishni xoxlamagan anonim murojaat qilgan shaxslarning shaxsiga doir ma'lumotlarni maxsus belgilar asosida qayd etish orqali DNK tadqiqotlari o'tkaziladi va mutaxassis fikri beriladi.

Markazning Odam DNKsi sud biologik ekspertizasi laboratoriya(lari)sida biologik otalik faktini aniqlash, biologik onalik faktini aniqlash, biologik aka-uka va opa-singillik faktini aniqlash, biologik amaki, amma, tog'a, xolaning jiyanga nisbatan qarindoshlik faktini aniqlash, bobo-buvi orqali nevaraning qarindoshlik faktini aniqlash, ota avlod bo'yicha biologik qarindoshlikni aniqlash yuzasidan tadqiqotlar o'tkaziladi.

Ushbu qo'llanma keng jamoatchilik vakillarini DNK ekspertizasi sohasi haqida tushuncha va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishini ta'minlash hamda sohadagi mavjud imkoniyatlardan keng foydalanilishi maqsadida ishlab chiqilgan.

Mazkur qo'llanma bilan tanishish orqali fuqarolar odam DNKsi sud biologik ekspertizasi imkoniyatlari, ekspertizada hal etiladigan savollar, uni tayinlash sabablari, o'tkazish muddatlari, tadqiqot obyektlari, ularni olish va qadoqlash tartibi, mutaxassis fikri tadqiqotlarini o'tkazish tartibi va asoslari, anonim murojaat o'tkazish tartibi bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

1. SUD EKSPERTIZALARINI TAYINLASH VA O‘TKAZISH MASALALARI

1.1. Sud ekspertizalarini tayinlash va o‘tkazish masalalari. Umumiy xolatlar

O‘zbekiston Respublikasining “Sud ekspertizasi to‘g‘risida”gi qonuni sohadagi munosabatlarni tartibga solishning asosiy huquqiy asosi hisoblanadi. Ushbu normativ hujjat boshqa qonun hujjatlari uchun metodologik xususiyatga ega.

Sud ekspertizasi haqiqatni aniqlashga imkon beradigan dalillarning universal manbaidir. Odil sudlovni amalga oshirishda sud ekspertizasi ish uchun ahamiyatli holatlar, izlar, ashyoviy dalillar va boshqa obyektlarning tabiati va miqdori, vaqti, joyi va mexanizmi, shu bilan birga jinoyatchining shaxsi, jinoyatni sodir etilishiga imkon bergan sabab va sharoitlar haqida aniq va ishonchli ma’lumotlar olishga imkon beradi.

Ekspertiza tadqiqotlarini o‘tkazish jarayonida ekspert mustaqil protsessual shaxs sifatida ekspertizaga doir qo‘shimcha obyektlar, axborotlar, ekspertiza materialidan tashqariga chiqmaydigan ma’lumotlarni talab qilib olishi mumkin.

Ekspert oldiga qo‘yiladigan savollar, uning maxsus bilimlari doirasidan tashqariga chiqmasligi lozim. Tadqiqot natijasida beriladigan xulosalar esa ekspertning bilim doirasi bilan chegaralanadi va uning vakolatidan tashqari chiqmasligi kerak. Ekspert jinoyatni tergov qilish va sud jarayoni davrida mutaxassis sifatida ham jalb etilishi mumkin.

Sud ekspertining xulosasi – sud eksperti yoki sud ekspertlari komissiyasi tomonidan tuziladigan va sud ekspertiza tekshirishlarining olib borilishini va natijalarini aks ettiradigan yozma hujjatdir.

Ayrim hollarda tergov va sud ishlarini olib borish jarayonida qo‘shimcha yoki takroriy ekspertizalar o‘tkazish zaruriyati tug‘iladi.

O‘zbekiston Respublikasining “Sud ekspertizasi to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq qo‘shimcha sud ekspertizasi xulosadagi bo‘shliqlarning o‘rnini to‘ldirish uchun tayinlanadi va shu yoki boshqa sud eksperti (sud ekspertlari komissiyasi) tomonidan o‘tkaziladi.

Xulosa asoslantirilmaganda yoki uning to‘g‘riligiga shubha tug‘ilganda yoxud unga asos qilib olingan dalillar ishonchli emas deb topilganda yoki sud ekspertizasini o‘tkazishning protsessual qoidalari jiddiy buzilganda qayta sud ekspertizasi tayinlanadi.

Qayta sud ekspertizasi tayinlanganda sud eksperti (sud ekspertlari komissiyasi) oldiga ilgari qo‘llanilgan tekshirish usullarining ilmiy asoslanganligi to‘g‘risidagi masala qo‘yilishi mumkin.

Qayta sud ekspertizasini tayinlash to'g'risidagi qarorda yoki ajrimda qayta sud ekspertizasini tayinlagan organning (shaxsning) birinchi (oldingi) sud ekspertisasi xulosasiga qo'shilmaganligi sabablari ko'rsatilishi lozim.

Qayta sud ekspertizasini o'tkazish boshqa sud ekspertiga (sud ekspertlari komissiyasiga) topshiriladi. Birinchi (oldingi) sud ekspertizasini o'tkazgan sud eksperti (sud ekspertlari komissiyasi) qayta sud ekspertizasini o'tkazishda hozir bo'lishi va tushuntirishlar berishi mumkin, lekin u tekshirish o'tkazish va xulosa tuzishda ishtirok etmaydi.

Dastlabki va qayta ekspertiza materiali odatda o'zgarishsiz qoladi, lekin ekspertning talabiga ko'ra qayta ekspertiza materiali qo'shimcha namunalar bilan to'ldirilishi mumkin, qayta ekspertiza komissiya, ya'ni ikki yoki ko'proq bo'lgan ekspertlar tomonidan o'tkaziladi.

Birlamchi ekspertiza tadqiqotlarini o'tkazgan mutaxassisning fikri, xulosalari qayta ekspertiza xulosalariga qarama-qarshi bo'lmasa u takroriy ekspertiza tadqiqotlarida komissiya tarkibida ishtirok etishi mumkin, aks holda u o'zining avvalgi asosiy xulosasiga ichki ishonch hosil qilganligi tufayli uning xulosa-fikri o'zgarishsiz qoladi. Birlamchi ekspertiza natijasi bilan qayta ekspertiza xulosasi bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan taqdirda uni komissiya ishtirokida tajribali mutaxassis rahbar xodimlar bilan hamkorlikda muhokama qilinadi va ulardan qaysi biri to'g'ri ekanligi baholanadi. Ko'pchilik fikr-mulohazasi to'g'ri kelgandagina xulosa bir bo'lib imzolanadi va obyektiv deb topiladi.

Qayta ekspertiza ikkinchi va uchinchi marotaba ham tayinlanishi mumkin. Ekspertiza amaliyotida shunday hollar uchrab turadiki, birlamchi ekspertiza xulosasi bilan qayta ekspertiza xulosasi bir-biriga qarama-qarshi, har qaysisi ham asosli va qator belgi sifatlariga tayangan holda tekshirilgan bo'lib, tergov ulardan qaysi birini ishga qo'shish lozimligini bilolmay qiyinchilikka duch keladi. Ana shunday hollarda tergov yoxud sud uchinchi marotaba takroriy ekspertiza tayinlashga haqlidir.

Qayta sud ekspertizasini o'tkazish boshqa sud ekspertiga (sud ekspertlari komissiyasiga) topshiriladi. Birinchi (oldingi) sud ekspertizasini o'tkazgan sud eksperti (sud ekspertlari komissiyasi) qayta sud ekspertizasini o'tkazishda hozir bo'lishi va tushuntirishlar berishi mumkin, lekin u tekshirish o'tkazish va xulosa tuzishda ishtirok etmaydi.

Zarurat tug'ilganda, ko'rilayotgan ish bo'yicha "sud ekspertisasi bir xil (komissiyaviy sud ekspertisasi) yoki turli xil (kompleks sud ekspertisasi) sud-expert ixtisosligidagi bir necha sud eksperti tomonidan o'tkazilishi mumkin.

Komissiyaviy sud ekspertisasi o'tkazilayotganda sud ekspertlarining har biri tekshirishlarni to'liq hajmda o'tkazadi va ular olingan natijalarni birgalikda tahlil qiladi. Sud ekspertlari umumiy fikrga kelganidan so'ng birgalikda xulosani yoki

xulosa berishning iloji yoʻqligi toʻgʻrisidagi hujjatni tuzadi va imzolaydi. Sud ekspertlari oʻrtasida kelishmovchiliklar kelib chiqqan taqdirda, ularning har biri kelishmovchiliklar kelib chiqqan barcha yoki ayrim masalalar boʻyicha alohida xulosa beradi.

Sud ekspertizasining sud ekspertlari komissiyasi tomonidan oʻtkazilishi sud ekspertizasini tayinlagan organ (shaxs) yoki mazkur ekspertizaning oʻtkazilishini tashkil etuvchi davlat sud-expertiza muassasasi yoxud boshqa tashkilot rahbari tomonidan belgilanadi. Sud ekspertizasini oʻtkazish topshirilgan sud ekspertlari komissiyasi oʻz oldiga qoʻyilgan masalalarni hal etish zarurligidan kelib chiqib, oʻtkaziladigan tekshirishlarning maqsadi, ketma-ketligi va hajmini kelishib oladi.

Sud ekspertizasini oʻtkazish topshirilgan sud ekspertlari komissiyasi tarkibidagi har bir sud eksperti tekshirishlarni mustaqil va alohida olib boradi, shaxsan oʻzi va komissiyaning boshqa aʼzolari tomonidan olingan natijalarni baholaydi hamda qoʻyilgan savollar yuzasidan oʻz maxsus bilimlari doirasida fikrlarini shakllantiradi.

Tekshirishlarning sud ekspertlari komissiyasi tarkibiga kiritilmagan shaxslar tomonidan toʻliq yoki qisman oʻtkazilishiga yoʻl qoʻyilmaydi.

Ekspertiza natijalari va ekspertning taqdim etilgan obyektlar bilan oʻtkazgan tadqiqotlari ekspert xulosasi shaklida rasmiylashtiriladi.

1.2. Odam DNKsi sud-biologik tadqiqotlarini oʻtkazish yoʻllari

Markazga Odam DNKsi sud-biologik ekspertizasi boʻyicha tegishli masalalarni xal etish uchun fuqarolar quyidagi yoʻllar orqali murojaat qilishlari mumkin boʻladi:

Jinoyat ishi alomatlari mavjud boʻladigan boʻlsa yashash joyi boʻyicha ichki ishlar idoralari boʻlinmalariga ariza bilan murojaat qilish

Fuqarolar oʻrtasidagi ziddiyatlarga barxam berish uchun yashash joyi boʻyicha fuqarolik ishlari boʻyicha sudlarga murojaat qilish

Oilaviy nizolarga barxam berish uchun fuqarolarning Markazga mutaxassis fikrini oʻtkazish yuzasidan ariza bilan murojaat qilish

Oilaviy nizolarga barxam berish uchun murojaat qilgan shaxslarning shaxsiga doir maʼlumotlarni maxsus belgilar asosida qayd etish orqali anonim tarzda tadqiqotlarni oʻtkazish uchun murojaat qilish

1.2.1. Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar tomonidan odam DNKsi sud-biologik ekspertizasi tayinlanganda ekspertizasiga taqdim qilinadigan hujjatlar va ularga qo'yiladigan talablar.

Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlardan otalik yoki onalikni belgilash, otalikka e'tiroz bildirish holatlari, me'ros masalasi bilan bog'liq turli qarindoshlik munosabatlari bo'yicha ishlar kelib tushadi. Ushbu hollarda tomonlarning solishtirma namunalari tekshiruvdan o'tkaziladi va qat'iy xulosa beriladi.

Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar tomonidan Odam DNKsi sud biologik ekspertizasi tadqiqotlarini o'tkazishlik uchun quyidagi hujjatlar talab qilinadi:

-Odam DNKsi sud-biologik ekspertizasini o'tkazish haqida sudning ajrimi;
-Ekspertiza xarajatlari uchun to'lovni to'langanligini tasdiqlovchi to'lov pattasi (kvitantsiya, chek qog'oz);
-Tomonlar (da'vogar, javobgar, arizachi, manfaatdor va boshqalar)ning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlari nusxalari (pasport, tug'ilgan haqidagi guvohnoma va boshqalar);
-Bolaning tug'ilganlik haqidagi guvohnomasi mavjud bo'lmagan holatlarda mahalla yoki boshqa vakolatli idoralar tomonidan berilgan ma'lumotnoma;
-Tekshiruv namunalari (qon, so'lak) olish haqida bayonnomaning asli yoki nusxasi;
-Tekshiruv o'tkazilishi lozim bo'lgan shaxslarning solishtirma namunalari.

Ajrimda tomonlar(da'vogar, javobgar, arizachi, manfaatdor va boshqalar)ning familyasi, ismi, sharifi, tug'ilgan sanasi va boshqa ma'lumotlar shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarida keltirilgan ma'lumotlar bilan bir xil bo'lishi va farq qilmasligi lozim.

Bundan tashqari, ajrimda tomonlardan ekspertiza tadqiqotlari uchun namunalarni RSEM yoki uning viloyat bo'limlarida bo'lim mutaxassisi tomonidan olinishi aniq qilib belgilanib ketilishi lozim.

Tomonlarning namuna topshirish jarayoni xolisona amalga oshirilayotganligini kuzatish uchun xolislarning ishtiroki ham to'liq ta'minlanishi lozim.

1.2.2. Fuqarolar (jismoni va yuridik shaxslar)ning Markazga odam DNKsi sud-biologik tadqiqotlari yuzasidan mutaxassis fikrini o'tkazish uchun murojaat qilish tartibi.

Fuqarolar tomonidan oilaviy nizolarga barxam berish maqsadida, fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarga murojaat qilmagan xolda DNK tadqiqotlarini o'tkazish bo'yicha Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markaziga murojaat qilishlari mumkin.

Bunda fuqarolar shaxsini tasdiqlovchi hujjatlari bilan birgalikda Markazga tashrif buyurishlari lozim bo'ladi. Markazda bevosita mutaxassisning yordami va belgilangan tartibga ko'ra ariza shakli to'ldiriladi, fuqaro(lar) bilan shartnoma tuziladi, shartnoma shartlari belgilanadi, to'lov amalga oshiriladi va tadqiqotlar

uchun fuqarolarning xoxishiga ko‘ra qon yoki so‘lak (bukkal epiteliy) namunalari mutaxassis tomonidan olinadi va qadoqlanadi. Olingan namunalar tegishli xo‘jjatlar bilan birga qayd uchun devonxonaga topshiriladi.

1.2.3. Murojaat qilgan shaxslarning shaxsiga doir ma’lumotlarini maxsus belgilar asosida qayd etish orqali anonim tarzda DNK tadqiqotlarni o‘tkazish tartibi

Murojaat qilgan shaxslarning shaxsiga doir ma’lumotlarni maxsus belgilar asosida qayd etish orqali tadqiqotlarni o‘tkazish bo‘yicha 2022-yil 14-mart kuni O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining “Odam DNKsi sud-biologik ekspertizasi bo‘yicha anonim murojaat qilgan shaxslarning shaxsiga doir ma’lumotlarni maxsus belgilar asosida qayd etish orqali tadqiqotlarni o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizom”ni tasdiqlash to‘g‘risidagi buyrug‘i qabul qilingan.

Unga ko‘ra Odam DNKsi sud-biologik ekspertizasi bo‘yicha anonim murojaat qilgan shaxslarning shaxsiga doir ma’lumotlarni maxsus belgilar asosida qayd etish orqali tadqiqotlarni o‘tkazish O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazi va uning hududiy bo‘limlari tomonidan amalga oshirilishi belgilanib qo‘yilgan.

Shu bilan birga ushbu hujjatga ko‘ra bu turdagi Odam DNKsi sud-biologik ekspertizasiga oid tadqiqot natijalari bo‘yicha rasmiylashtirilgan mutaxassis fikri tavsivaviy xarakterga ega bo‘lib, huquqiy oqibatlar keltirib chiqarmasligi belgilangan.

Bunda Sud ekspertizasi markazi xizmatidan foydalanish uchun buyurtmachi o‘z xohishiga ko‘ra shaxsan o‘zi kelgan holda yoki masofadan turib anonim murojaat qilish anketasini to‘ldiradi.

Nizomda keltirilgan Anketani to‘ldirish jarayonida buyurtmachi(lar)dan uning shaxsiga doir ma’lumotlarini kiritish talab etilmaydi. Bunda, buyurtmachi(lar)ning anketasi alohida tartib raqam bilan ro‘yxatdan o‘tkaziladi.

Buyurtmachi tomonidan anketa to‘ldirilgandan so‘ng, unga anketa raqami hamda murojaatning (anketa) holatini bilish, to‘lovni amalga oshirganligi to‘g‘risida to‘lov varaqasini (kvitansiya) ilova qilish va mutaxassis fikrini olishi uchun maxsus belgilardan iborat bo‘lgan holatni tekshirish kodi beriladi.

Anketani to‘ldirish jarayonida tanlangan tadqiqot yo‘nalishi, namunalar turi va sonidan kelib chiqib tadqiqotlar uchun to‘lanadigan to‘lov summasi hisoblanadi.

Buyurtmachi tomonidan ko‘rsatilgan miqdordagi to‘lovlar anketaga berilgan tartib raqam ko‘rsatilgan holda elektron shaklda yoki bank orqali amalga oshiriladi hamda to‘lovning amalga oshirilganligini tasdiqlovchi kvitansiya anketaga ilova qilinadi.

Buyurtmachining xohishiga ko‘ra tadqiqot namunalarini Sud ekspertizasi markaziga taqdim etish uchun zarur bo‘lgan maxsus to‘plamlar (nuklein kartalar, zondlar va boshqalar) buyurtmachi tomonidan ko‘rsatilgan pochta manziliga yuborilishi yoki bevosita Sud ekspertizasi markaziga tashrif buyurgan holda olinishi mumkin.

Tadqiqot namunalari boshqa tashuvchi vositalarda ham taqdim etilishi mumkin.

Buyurtmachi tomonidan to'lovlar amalga oshirilganidan so'ng tadqiqot namunalari Sud ekspertizasi markaziga anketa raqamini ko'rsatgan holda pochta aloqasi tarmog'i orqali yuborilishi, bevosita tashrif buyurgan holda taqdim etilishi yoki Sud ekspertizasi markazi mutaxassisi (sud eksperti) ishtirokida olinishi mumkin.

Bunda, Sud ekspertizasi markaziga yuboriladigan yoki bevosita topshiriladigan namunalarning har biriga maxsus shifr raqami qo'yiladi.

Sud ekspertizasi markazi mutaxassisi (sud eksperti) ishtirokida olinmagan tadqiqot namunalarning sifati (yaroqliligi) uchun buyurtmachi mas'ul hisoblanadi.

Tadqiqotlar o'tkazish jarayonida Sud ekspertizasi markazi mutaxassisi (sud eksperti) ishtirokida olinmagan tadqiqot namunalarning sifatsiz (yaroqsiz) ekanligi aniqlanganda, amalga oshirilgan to'lov buyurtmachiga qaytarib berilmaydi.

Sud ekspertizasi markaziga yuborilgan yoki bevosita topshirilgan tadqiqot namunalarning to'liqligi, shifrlanganligi hamda qadoqlash tartibiga rioya etilgan holda taqdim etilganligi mas'ul xodim tomonidan tekshirib olinadi. Tadqiqot namunalari qabul qilib olish davomida ularda bartaraf etib bo'lmaydigan kamchiliklar aniqlanganida ro'yxatdan o'tkazilmasdan buyurtmachiga qaytariladi.

Buyurtmachi o'z murojaatini ro'yxatga olingan kundan boshlab uch ish kuni ichida ko'rib chiqishni tugatish to'g'risida iltimosnoma kiritishi mumkin. Bunda, tadqiqotlar Sud ekspertizasi markazi mutaxassislari (sud ekspertlari) tomonidan uch ish kuni o'tgandan so'ng boshlanadi.

Kelib tushgan iltimosnomaga asosan Sud ekspertizasi markazi besh ish kuni ichida buyurtmachi tomonidan amalga oshirilgan to'lovlarning qaytarilishini ta'minlashi lozim.

Tadqiqotlar boshlangan va reagentlar sarf etilgandan so'ng amalga oshirilgan to'lov buyurtmachiga qaytarilmaydi.

Tadqiqot namunalari bo'yicha mutaxassis (sud eksperti) fikrini berish muddati uning murakkablik darajasi va o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda o'ttiz kungacha etib belgilanadi.

Mutaxassis (sud eksperti) tadqiqot natijasi bo'yicha anketa raqamini ko'rsatgan holda mutaxassis fikrini rasmiylashtiradi va elektron raqamli imzo bilan tasdiqlaydi.

2. ODAM DNKSI SUD BIOLOGIK EKSPERTIZASI HAMDA TEKSHIRUV OB‘YEKTLARI

2.1. Odam DNKsi sud biologik ekspertizasi tushunchasi, xolati

Odam DNKsi sud-biologik ekspertizasining predmeti – bu zamonaviy molekulyar genetik uslublarni qo‘llab odamning biologik obyektlarini tadqiqot qilish yo‘li bilan ish uchun ahamiyatli bo‘lgan ma‘lumotlarni aniqlashdir.

O‘zbekistonda fuqarolarning huquq va erkinliklarining kafolatli himoya qilinishida, qonun ustuvorligi hamda huquq tartibotni ta‘minlashda, jinoyatchilikning oldini olish va uni fosh etishda sud ekspertizalar hamda ularning tadqiqot natijalari muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ham bugungi kunda sud ekspertiza faoliyatini zamonaviy va yuqori aniqlikdagi tahlil vositalari bilan jihozlash orqali sud ekspertizalari sifati va ishonchliligini oshirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. “Odam DNKsi sud biologik ekspertizasi” ham sud ekspertiza turlari orasida jadal sur‘atlar bilan rivojlanayotganlaridan biridir.

DNK molekulasining irsiy ma‘lumotlarni saqlash hamda nasldan naslga o‘tkazish ilmiy asoslardan kelib chiqib Odam DNKsi sud biologik ekspertizasi zamonaviy molekulyar genetik uslublarni qo‘llab odamning biologik obyektlari (qon, so‘lak, soch, mushak, suyak va boshqalar)ni tadqiqot qilish yo‘li bilan ish uchun ahamiyatli bo‘lgan masalalarni hal etadi. Ushbu ekspertiza turli sabablarga ko‘ra tayinlanishi mumkin. Masalan yaqin qarindoshlikni aniqlash, otalikni belgilash, onalikni belgilash, meros belgilashda qarindoshlikni aniqlash holatlari bo‘yicha, tug‘ruqxonalarda chaqaloqning almashib qolishi, shaxsi noma‘lum murdalarning shaxsiga aniqlik kiritish holatlarini aniqlash va boshqa ko‘pgina jinoiy ishlarni fosh etish uchun odam DNK si sud biologik ekspertizasi tayinlanadi.

Bugungi kunda Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazining Odam DNKsi sud biologik ekspertizasi laboratoriyasida o‘tkaziladigan DNK ekspertizasi tadqiqotlari davomida inson biologik materiallaridan DNK molekulalarini ajratib olishda organik, differensial lizis va boshqa bir nechta ekspress usullar qo‘llaniladi. DNK maxsus uchastka (STR lokus)larini polimeraza zanjir reaksiyasi orqali yetarli (milloin, milliard) miqdorda ko‘paytirib olinadi va fragment tahlil qilinadi. Shuningdek laboratoriyada shaxs genotipini aniqlashda yadroviy DNK va Y-xromosomaning STR lokuslarini tahlil qilish imkonini beradigan maxsus DNK marker to‘plamlaridan foydalaniladi. Aniqlangan genotiplar maxsus kompyuter dasturlaridan foydalanib qarindoshlik ehtimollik darajalari hisoblanadi hamda identifikatsiya masalalari hal etiladi.

Biologik otalik (onalik)ni aniqlash- irsiyat qonunlariga bo‘ysungan holda genetik belgilarni ota-onadan bolaga o‘tish qonuniyatiga asoslangan. Ma‘lumki, urug‘lanish jarayonida ota va ona jinsiy xujayralari gaploid holatda, ya‘ni o‘zining xromosomalar juftining teng yarmidan tarkib topgan bo‘ladi. Urug‘lanish davrida tuxum hujayra va urug‘ hujayrasi birlashadi. Ushbu jarayonda xomila (bola)ning har bir DNK lokusi otadan bitta va onadan bitta allelni oladi va bolada gomologik xromosomalar jufti tiklanadi. Bunda farzandning DNK lokuslarini genetik raqamli

ko'rinishi aniqlanganda uning har bir lokusi ikkita raqamdan, ya'ni biri otadan olingan, biri onadan olingan allellardan tashkil topgan bo'ladi. Ushbu qonuniyat ekspertiza tadqiqoti davomida, taqdim qilingan ob'ektlar ustida tekshiriladi. Odam DNKsi sud biologik ekspertizasi laboratoriyasida. tadqiqotlarning barcha bosqichlari eng so'nggi zamonaviy molekulyar genetik texnologiya jihozlarida har tomonlama va to'liq o'tkaziladi hamda tadqiqot natijalariga asoslangan holda xolisona xulosalar beriladi.

Mustaqilligimizning dastlabki yillaridan ushbu sohaga alohida e'tibor qaratilib, Hukumatimizning "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining ekspertiza xizmatini rivojlantirish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq Markazga sud-ekspertiza masalalari bo'yicha ilmiy-uslubiy hamda muvofiqlashtiruvchi idora maqomi berilgan. Ma'lumki, DNK ekspertizasini o'tkazish uchun qo'llaniladigan uskunalar, reagentlar va sarf materiallarning muntazam ravishda yangi rusumlari ishlab chiqarilib, eskilari ma'lum muddatdan so'ng ishlab chiqarishdan olib tashlanib, bir necha yildan keyin butkul texnologik servisi to'xtatiladi. Shuning uchun, DNK laboratoriyasi moddiy-texnik bazasini har besh-o'n yilda modernizatsiyalash zarur bo'ladi. Xususan, 2019-yilda Odam DNKsi sud biologik laboratoriyasining jahon standarti talablariga mos binosi ishga tushirildi.

Shuningdek, laboratoriyada tadqiqotlarning barcha bosqichlari jahonda mashhur bo'lgan chet el firmalari (ThermoFisherScientific, Eppendorf, Biobase, Meling, Metler Toledo va h.k.)dan keltirilgan o'ta sezgir, zamonaviy asbob-uskunalar va jihozlarda olib boriladi.

Bundan tashqari mazkur laboratoriya O'rta Osiyo va Yevropaning rivojlangan davlatlari bilan xalqaro aloqalarni o'rnatgan. Laboratoriya ekspertlari ko'pgina xorijiy davlatlarda jumladan, AQSH, Avstarliya, Turkiya, Malayziya, Belorusiya va Qozog'iston davlatlarida o'z mutaxassisliklari yuzasidan bilim va malakalarini oshirib kelgan. Ushbu mehnatlar samarasi natijasida markazning DNK ekspertizasi laboratoriyasi xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazildi. Jumladan, 2023-yil 03-fevral kuni O'Z DST ISO/IEC 17025:2019 standart talablariga muvofiq baho berilganligi va akkredatsiya qilinganligini tadiqlovchi Akkredatsiya guvohnomasi berildi. Ushbu akkredatsiya guvohnomasi berilganligi Odam DNKsi sud biologik ekspertizasi laboratoriyasida o'tkaziladigan tadqiqotlar hamda tadqiqotlar natijalariga asoslangan holda beriladigan ekspertiza xulosalariga bo'lgan ishonchni yana bir karra ortishi bilan bir qatorda nafaqat O'zbekistonda balki xalqaro miqyosda ham uning tan olinishini ta'minlaydi va kafolatlaydi. Albatta bu oson bo'lmadi.

Laboratoriyani xalqaro akredatsiyadan o'tkazish jarayoni uchun maxsus chora tadbirlar rejasini ishlab chiqildi. Maxsus chora tadbirlar rejasiga ko'ra laboratoriya eng so'ngi zamonaviy texnik uskunalar bilan jihozlandi, xodimlarning bilim va malakasi oshirildi va sifat menejmenti tizimi bo'yicha maxsus hujjatlar to'plami ishlab chiqilib amaliyotga tadbiriq qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-iyul kunidagi "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SUD-EKSPERTLIK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA"gi 6256-sonli

farmoni qabul qilinib, ushbu farmonda 2021-2025-yillarga mo'ljallangan konsepsiya va uni amalga oshirish yuzasidan yo'l xaritasi tasdiqlangan.

Shuningdek, 10.01.2022-yilda Vazirlar Mahkamasining 11-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu qaror bo'yicha Samarqand shahrida Odam DNKsi sud biologik ekspertizasi laboratoriyasi ochilishi 2022-yil 1-iyul kuniga belgilangan edi va ushbu reja amalga oshirildi. Mazkur yo'l xaritasiga ko'ra Samarqand shahridan tashqari Farg'ona, Termiz, Urganch shaharlarida ham Odam DNKsi sud biologik ekspertizasi laboratoriyalari ochilishi rejalashtirilgan va bu reja bo'yicha chora-tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda Odam DNKsi sud-biologik ekspertizasi va uning imkoniyatlaridan samarali foydalanish, hamda aholining bu turdagi ekspertizaga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2022-yil 14-martdagi 7-mh-son buyrug'iga asosan tasdiqlangan "Odam DNKsi sud-biologik ekspertizasi bo'yicha anonim murojaat qilgan shaxslarning shaxsiga doir ma'lumotlarni maxsus belgilar asosida qayd etish orqali tadqiqotlarni o'tkazish tartibi to'g'risidagi NIZOM" qabul qilindi. Mazkur ekspertiza turi bo'yicha, hozirgi kunga qadar fuqarolar tomonidan Odam DNKsi sud biologik ekspertizasiga ko'plab murojaatlar kelib tushmoqda va anonim ekspertizalar tayinlashmoqda.

Bu kabi DNK tadqiqotlari natijasida er-xotin o'rtasidagi tushunmovchiliklar, qaynonaning o'z keliniga nisbatan asossiz shubha-gumonlari, tug'ruqxonada bola almashib qolish holatlari va yaqin qarindoshlar o'rtasidagi meros masalasi bilan bog'liq yuzaga keladigan turli muammolar o'z yechimini topmoqda. Ayniqsa erlarning xotiniga nisbatan yoki xotinlarning erlariga nisbatan yuzaga kelgan ortiqcha shubha gumonlari aynan mana shu anonim DNK tadqiqotlari natijalarida barham topmoqda. Bu esa o'z-o'zidan yurtimizdagi ajrashishlar, oilalarning buzilib ketishi kabi holatlarni oldini olishga xizmat qilmoqda.

2.2. Odam DNKsi sud biologik ekspertizasi hal qiladigan masalalar

Odam DNKsi sud-ekspertizasi tadqiqotlarni o'tkazish uchun fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar hamda fuqarolar tomonidan quyidagi masalalrni xal etish yuzasidan murojaat qilishlari mumkin.

Biologik otalik (onalik) faktini
aniqlash



Biologik ota-onalik faktini aniqlash



Biologik aka-ukalik faktini aniqlash
(Biologik opa-singillik faktini
aniqlash)



Biologik bobo-buvalik faktini
aniqlash



Ota avlod bo'yicha biologik
qarindoshlik faktini aniqlash (Y-
xromosoma bo'yicha¹)

DNK tadqiqotlari orqali birinchi yoki ikkinchi darajali qarindoshlik faktlari aniqlanib, sud uchun zarur ma'lumotlarni berish imkoni mavjud. Xozirda texnologiyalarni tobora rivojlanib borayotganligi natijasida nafaqat birinchi yoki ikkinchi darajali, balki uchinchi yoki to'rtinchi darajali qarindoshlik faktlarini aniqlash imkoniyatlari mavjudligini ko'rishimiz mumkin.

Shuningdek, mavjud uslublar tekshirilayotgan shaxslarni bir ota yoki ona liniyasi bo'yicha qarindosh yoki yo'qligini aniqlash imkonini bermoqda. Bu aslida biologik ota-ona bo'lmagan xolatlarda, me'ros bilan bog'liq masalalarni xal qilishda qo'l keladi.



¹ Ota avlod bo'yicha biologik qarindoshlik faktini aniqlashda Y-xromosoma bo'yicha tadqiqotlar o'tkaziladi. Tadqiqot uslubi Y-xromosoma DNKsi mikrosatellit lokuslari allellarining irsiyat qonunlariga bo'ysungan holda otadan faqatgina erkak jinsidagi bolaga o'zgarimas holda o'tish qonuniyatiga asoslangan

2.3. Odam DNKsi sud biologik ekspertizasining obyektlari

Ma'lumki, har bir shaxsning biologik to'qimalari bir xil va butun umri mobaynida o'zgarmas DNKga ega bo'ladi. Bitta shaxsga tegishli bo'lgan barcha biologik materiallardan bir xil genotip aniqlanadi va ushbu genotip odam umri mobaynida o'zgarmaydi (monozigota egizaklardan tashqari ²).

Odam DNKsi sud biologik ekspertizasining obyekti bu - o'zida DNK tutuvchi har qanday biologik materiallar, xususan: qon, sperma, so'lak, soch, to'qimalar va organlar, tana qismlarining bo'laklari, shilliq qavat, qin ajratmalari, qon va sekretsiyalarning qurigan izlari, amniotik suyuqlik, xorion to'qima, tishlar, abort materiallari, murdalardan olingan suyaklar va suyak bo'laklari, yumshoq to'qimalar va boshqalar.

Quyida o'z tarkibida DNK molekulalarini saqlaydigan odam biologik materiallar haqida batafsil ma'lumotlarni keltirib o'tamiz.

Biologik material	Ko'rinishi	tavsifi
Qon namunasi		Odam qoni tarkibida qonning shaklli elementlari hisoblangan leykositlarning bir nechta xillari mavjud. Leykositlarning barcha xillari o'zining tarkibida DNK molekulasi saqlaydi. Shularning hisobiga qondan DNK molekulasini ajratib olish mumkin.
So'lak namunasi		So'lakda yonoqlarning ichki yuzasi epiteliy hujayralari mavjud - bu DNKning ishonchli manbai hisoblanadi. So'lakda DNK tahlilini o'tkazish uchun hatto uning izlari ham etarli, masalan, sigaret qoldig'ida yoki stakanda. So'lak namunasi DNK tekshiruvlari uchun qulay va universal hisoblanadi. Chunki namuna olish jarayoni oddiy, og'riqsiz, va alohida mahorat talab etilmaydi. Namuna olish tartibiga rioya etilganda DNK ajratish ehtimolligi -99%ga teng hamda saqlash va tashishda alohida sharoitni talab etmaydi.

² Ma'lumki, har bir shaxsning biologik to'qimalari bir xil va butun umri mobaynida o'zgarmas DNKga ega lekin ushbu biologik qonun monozigota egizaklarda istisno etiladi. Monozigota egizaklarni standart DNK tahlillari bilan individual ravishda farqlash mumkin emas, chunki ular bir xil DNK profiliga ega bo'ladi.

<p>Soch tolasasi</p>		<p>Soch follikullari sochning tirik qismi hisoblanadi. U hujayralar va birlashtiruvchi to'qimalarni o'z ichiga olgan strukturadir. Follikular sochning yagona "tirik" qismi hisoblanadi. Ko'zga ko'rinadigan sochlar bu hech qanday biokimyoviy faollikni ko'rsatmaydigan va "o'lik" deb hisoblanadigan soch ustunidir. Sochning ildizida soch turini hosil qiluvchi hujayralar mavjud. Anashu hujayralardan DNK molekula ajratib olinadi. Kesilgan va to'kilgan sochlartadqiqotlar uchun to'g'ri kelmaydi</p>
<p>Tirnoqosti biomateriallar</p>		<p>Tirnoq-barmoqlarni himoya qiluvchi shoxsimon tuzilma. Tirnoqning matritsa qismidagi hujayralarining ko'payishi tufayli tirnoq uchiga qarab asta-sekin o'sib boradi. Tirnoq o'sib borishi natijasida o'zining ostida ter va terilarning birlashtirilgan holdagi biologik material hamda boshqa ortiqcha kirlarni to'plab boradi. Odam janjallashish va shilishish holatlarida o'zining tirnog'i ostida boshqa shaxsning biologik materiallarini ham saqlashi mumkin.</p>
<p>Mushak to'qimasi</p>		<p>Mushaklar qo'zg'aluvchanlik, o'tkazuvchanlik, qisqaruvchanlik (taranglik darajasini o'zgartirish) qobiliyatlariga ega. Mushak to'qimasidan boshqa to'qimalarga qaraganda ko'p miqdorda DNK molekulasini ajratib olish mumkin.</p>
<p>Suyak to'qimasi</p>		<p>Suyaklar— odam skeletining asosiy qismi. Suyaklar osteotsit va osteoblast hujayralari hamda mineral moddalardan tarkib topgan. Suyak hujayralari o'z tarkibida DNK molekulasini saqlaydi. Odam biologik materiallari orasida eng uzoq umr ko'ruvchi to'qima hisoblanadi.</p>
<p>Maniy (sperma)</p>		<p>Spermatozoid- uzun ip shaklida bo'lib, uch qismdan: bosh, bo'yin, dumdan iborat. Bosh qismida yadro joylashadi. DNK yadro ichida joylashadi.</p>

Shuningdek, yuqorida keltirilgan biologik materiallardan tashqari biologik materiallar tashuvchilari ham odam DNKsi sud-biologik ekspertizasining obyektlari hisoblanadi.

Jumladan:

- ✓ Voqea joyidagi qon izlari;
- ✓ Qon va tana ajratmalarining qurib qolgan izlari;
- ✓ Ashyoviy dalillardagi biologik izlar (qon, so‘lak, ter-yog‘ izlari), ya‘ni sigaret qoldiqlari; voqea joyida qoldirib ketilgan kiyim kechaklar, jumladan kepka, niqoblar; stakan; baklajkalar;
- ✓ qotillik qurollaridagi biologik izlar (qon, ter-yog‘ izlari), ya‘ni pichoq, arqon, stol, stul, turli temir buyumlar, shisha idishlar, toshlar kabi qotillik qurollari sifatida foydalanilgan barcha narsalardagi qon va ter-yog‘ qoldiqlari;
- ✓ bo‘laklangan tana qoldiqlari;
- ✓ o‘zida maniy qoldiqlarini saqlovchi turli kiyimlar, ichki kiyimlar, yopinchiqlar, yostiqlar, surtmalar, himoya vositalari (prezervativlar), salfetkalar va boshqalar.
- ✓ Abort materiallar

2.4. Odam DNKsi sud-biologik ekspertizasiga taqdim etilishi lozim bo‘lgan ob‘ektlarni olish, saqlash va yuborish tartibi.

2.4.1. Odam DNKsi sud-biologik ekspertizasiga taqdim etilishi lozim bo‘lgan obyektlarni olish.

Fuqarolik ishlari bo‘yicha masalalarni ko‘rib chiqishda sudlar sud majlisida tomonlar (*da‘vogar, javobgar, arizachi, manfaatdor va boshqalar*)ning ekspertiza tadqiqotlari uchun qon namunasini yoki so‘lak namunasini topshirishlari kelishib olinishi va ajrimda ushbu namuna aynan belgilab ketilishi lozim bo‘ladi. Ba‘zan qon yoki so‘lak namunasini topshirish tomonlarning ixtiyoriga qoldirilishi holatlari kuzatiladi. Sudlar tomonidan qon yoki so‘lak namunalarni topshirish tanlovini tomonlarning ixtiyoriga qoldirishlarida muammoli holatlar yuzaga kelishini ham inobatga olishlari lozim.

DNK ekspertisasi uchun ekspertizani tayinlagan organning ajrimiga binoan tekshirilayotgan shaxslardan qonni sud ekspertiza muassasasida emas, balki boshqa tibbiyot muassasalarida olishga ruxsat beriladi. Bunda, tekshirilayotgan shaxslarning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etiladi (kattalar uchun - pasport, voyaga etmaganlar uchun - tug‘ilganlik to‘g‘risidagi guvohnomalar) va namunalarni olish jarayoni vakolatli shaxs tomonidan sud tomonidan qayd etiladi. Bunday holda, namunalar har biri alohida muhrlangan qog‘oz paketga qadoqlanishi kerak. Paketda identifikatsion yozuv (shaxsni tasdiqlovchi hujjat asosida) va namunalarni olgan tibbiyot xodimlarining (mutaxassis), qon olish jarayonida qatnashgan shaxslarning, namuna olingan muassasa muhri bilan tasdiqlangan imzolari bo‘lishi kerak. Namunalarni olish to‘g‘risidagi bayonnoma

asli yoki nusxasi sud ekspertiza muassasalariga yuborilgan materiallarga alohida ilova qilinadi .

Qon namunasi tekshirilayotgan shaxslardan maxsus steril laboratoriyalarda qo‘l barmog‘idan 0,2- 0,5 ml miqdorida steril dokalarga olinadi. Qon olish jarayonida bir marta ishlatiladigan steril igna(skarifikator)lardan foydalaniladi. Bunda ovqatlanish tartibiga hech qanday talablar yo‘q. Na‘muna olinadigan bolalarning yoshi cheklanmagan.

So‘lak namunasi esa,- so‘lak namuna olish uchun mo‘ljallangan maxsus tayoqcha yordamida namuna topshiruvchining og‘iz bo‘shlig‘idan olinadi. Bunda ham ovqatlanish tartibi va bolaning yoshi belgilanmagan

Namuna olish jarayonida namuna oluvchi mutaxassis kontaminatsiya(bir biologik materialni boshqasi bilan ifloslanishi)siz namuna olayotganligi sud vakili tomonidan to‘liq nazoratga olinishi zarur. Shuningdek, namuna olish jarayonida ushbu jarayonda ishtirok etuvchi shaxslar tomonidan gapirish, aksa urish, yutalish yoki boshqa ortiqcha harakatlarni amalga oshirish ta‘qiqlanadi. Har bir namuna topshiruvchidan olingan namuna shu paytning o‘zida qadoqlanib, qaysi shaxsdan qanday turdagi namuna olinganligi haqidagi ma‘lumotlar yozilib, tegishli shaxslar tomonidan imzolanadi.

Biologik namunalarni qadoqlash uchun tayyor qog‘oz konvertidan yoki zich qog‘ozdan foydalanish maqsadga muvofiq. Qadoqlash uchun polietilen paketlar va havo o‘tkazmaydigan boshqa polimer materiallardan foydalanish qat‘iyan man etiladi. Qadoqlangan namunalar tegishli shaxslar ya‘ni namuna olish jarayonida ishtirok etgan shaxslar tomonidan imzolanadi hamda tegishli muassasaning muxri bilan muhrlanadi.

2.4.2. Odam DNKsi sud-biologik ekspertizasiga taqdim etilishi lozim bo‘lgan obyektlarni saqlash va yuborish

Ekspertiza tadqiqotlari uchun olingan va qadoqlangan solishtirma namunalar ekspertiza muassasasiga yetib kelguniga qadar yaxshi va yaroqli holatda saqlanishi zarur. Ekspertiza tadqiqoti davomida solishtirma namunaning yaroqsizlanganligi aniqlansa, sud ekspertizasi tayinlagan organga solishtirma namunalarni qaytadan taqdim qilish yuzasidan iltimosnoma yuboriladi va bu vaqtda ekspertiza ijrosi vaqtinchalik to‘xtab turadi. Bundan tashqari qaytadan namuna olish va ekspertiza muassasasiga taqdim etish qo‘shimcha vaqt va qo‘shimcha xarajatlarni talab etadi. Bunday holatlarni yuzaga kelishini oldini olish uchun bir nechta talablar mavjud. Jumladan: solishtirma namuna solingan qadoqlar to‘g‘ridan to‘g‘ri quyosh nuri, uzoq vaqt namlik va yuqori harorat ta‘sirida qoldirish mumkin emas. Solishtirma namunani quritish maqsadida sun‘iy va tabiiy issiqlik manbalaridan (quyosh nuri va har xil isitgichlar) foydalanish qat‘iyan man etiladi. Bu DNK zanjiridagi uzilishlarga olib kelishi va biologik namunani yaroqsiz holatga keltirishi mumkin. Bu esa tadqiqot davomida natija olinmasligiga sabab bo‘ladi.

Ekspertiza tadqiqotlari uchun olingan, qadoqlangan va belgilanagan tartibda saqlangan solishtirma namunalar ekspertiza muassasasiga yetib kelguniga qadar yaxshi, yaroqli hamda qadoq ichidagi namunalar almashtirilmagan holatda

yetkazilishi zarur. Solishtirma namunalarni ekspertiza muassasasiga yetib kelguniga qadar yaxshi va yaroqli holatda saqlanishi hamda yetkazilishi yuzasidan choralarni ko‘rish ekspertiza tayinlovchi organ (shaxs)ning zimmasida bo‘ladi. Chunki, ISO/IES 17025:2017 xalqaro standartining talabiga ko‘ra ishlab chiqilgan Markaz sifat bo‘yicha qo‘llanmasining 7.8.2.2 bandida sud ekspertiga tadqiqot uchun taqdim etilgan tekshirish obyektlarini ishonchliligiga sud ekspertizasini tayinlagan organ (shaxs) javob berishi belgilab qo‘yilgan. Sud ekspertiga tadqiqot uchun taqdim etilgan tekshirish obyektlari muhrlangan va tegishli yozuvlar bilan izohlangan, qadoqlar butunligi buzilmagan bo‘lishi belgilab qo‘yilgan.

2.5. Odam DNKsi sud-biologik ekspertizasi bo'yicha qo'yiladigan savollar

Sudlar tomonidan biror bir fuqarolik ishini ko'rib chiqishda tomonlarning va'jlari va ish bo'yicha barcha holatlar atroflicha o'rganilib chiqiladi. Bundan tashqari holat yuzasidan ekspertizalar tayinlanadi.

Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar tomonidan Odam DNKsi sud biologik ekspertizasiga tayinlanayotgan ekspertizalarning ayrimlarida ajrimda ko'rsatilgan savollarning ekspert vakolati doirasiga kirmasligi yoki ularning noto'g'ri talqinda berilishi holatlari kuzatilmoqda. Bunday holatlarda ekspertiza tayinlagan organ (shaxs) Odam DNKsi sud biologik ekspertizasi bo'yicha davlat sud eksperti (ekspertlari)ning xulosasini olganda ish uchun ahamiyatli bo'lgan ma'lumotlarni ololmasligi ham mumkin. Chunki davlat sud eksperti faqat hal etish uchun o'zining oldiga qo'yilgan savollargagina javob beradi. Savollar esa ajrimda noto'g'ri qo'yilgan. Shuning uchun ekspertiza tayinlashda ekspertlar oldiga hal qilishlik uchun qo'yilgan savollar noto'g'ri talqinda berilmasligi, Odam DNKsi sud biologik ekspertizasi vakolati doirasida berilishi talab etiladi.

Quyida ajrimda ko'rsatilgan savollarning ekspert vakolati doirasiga kirmasligi yoki ularning noto'g'ri talqinda berilishi yuzasidan ba'zi misollarni keltirib o'tamiz:

-Fuqaro A tomonidan 2012-yil 15-mayda dunyoga keltirilgan B ismli bolaning yoshi aniqlansin?

-2009-yil 13-iyulda tug'ilgan B ismli bola taraflar A va Slarning birgalikdagi hayoti (jinsiy yaqinligi) maxsulimi yoki yo'qmi?

-Fuqaro I.S.Ivanov. va 2009-yil 13-iyulda tug'ilgan Sherov Pavel Alekseyevichlar bir-birilari bilan fiziologik jihatdan o'xshashmi?

Yuqorida keltirilgan bunday mazmundagi savollarga javob berish Odam DNKsi sud biologik ekspertizasining vakolatiga kirmaydi va bunday turdagi tadqiqotlar o'tkazilmaydi. DNK ekspertizasi tekshiruvlari orqali muayyan shaxslarning bolaga nisbatan biologik otaligi yoxud onaligini, yoxud boshqa turdagi qarindoshligini aniqlash mumkin. Ma'lumki, shaxslarning jinsiy hayotga moyilligi tibbiyot mutaxassislari tomonidan hal etiladi.

Odam DNKsi sud biologik ekspertizasi bo'yicha ekspertlar oldiga hal qilishlik uchun quyidagicha savollar qo'yish mumkin.

-Fuqaro S(taxmindagi onaning ismi)ning 2012-yil 15-mayda tug'ilgan B(bolaning ismi)ga nisbatan biologik onaligi tasdiqlanadimi yoki yo'qmi?

-Fuqaro A(taxmindagi otaning ismi) ning 2012-yil 15-mayda tug'ilgan B(bolaning ismi)ga nisbatan biologik otaligi tasdiqlanadimi yoki yo'qmi?

-Fuqarolar V(taxmindagi akaning ismi) va G(taxmindagi ukaning ismi)ning larning bir-biriga nisbatan biologik aka-ukaligi tasdiqlanadimi yoki yo'qmi?

-Fuqaro D(taxmindagi amaining ismi)ning B(taxmindagi jiyanning ismi)ga nisbatan biologik amakimi yoki yo'qmi?

-Fuqaro V(taxmindagi amaining ismi) B(taxmindagi jiyanning ismi)ning biologik xolasimi yoki yo'qmi?

Odam DNKsi sud biologik ekspertisasi tadqiqotlari katta moddiy xarajatlarni talab qiladi, chunki unda dunyodagi bir nechta kompaniyalar tomonidan ishlab chiqarilgan maxsus reagentlar va maxsus to'plamlardan foydalaniladi. Bitta ekspertizaning qiymati ya'ni to'lov narxi ko'rib chiqilayotgan fuqarolik ishi yuzasidan kelib chiqib taqdim qilingan obyektlar (solishtirma namunalari)ning umumiy soniga hamda ekspert oldiga hal etishlik uchun qo'yilgan savollarning soniga qarab, umumlashtirilib belgilanadi. Fuqarolik ishlari yuzasidan Odam DNKsi sud biologik ekspertizasiga otalikka e'tiroz bildirish yoki biologik otalik faktini aniqlash yuzasidan tayinlangan ekspertizalarning ba'zilarida ham biologik otalikni ham, biologik onalikni ham aniqlash bo'yicha savollar qo'yilgan bo'ladi.

Yuqorida keltirilgani kabi tushunmovchiliklarni oldini olish uchun Odam DNKsi sud biologik ekspertizasiga ekspertiza tayinlayotgan sud organlari ajrimda ekspertlar oldiga hal qilishlik uchun savollar qo'yishda har bitta savol uchun to'lov qilinishini ham inobatga olishlari lozim.